

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning XORIJIIY MODELLARI VA MILLIIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE ATTENTION OF THE INTERNATIONAL COMMUNITY TO ENSURING GENDER EQUALITY

Dadaboyeva Jumagul Anvarovna

Associate Professor of Fergana State University, candidate of legal sciences

E-mail: dadaboyevajumagul74@gmail.com

Muhammadrajab Abidjon Habibullayevich

Fergana State University, student of jurisprudence

E-mail: muhammadrajabh18@gmail.com

Abstract. This article analyzes the issue of ensuring gender equality as a priority of the international community, focusing on the formation of legal frameworks and improvement of practical mechanisms in this field. Based on the Universal Declaration of Human Rights, the Declaration on the Elimination of Discrimination against Women, and other international legal acts, the article discusses the legal status of women and their role in political, social, and economic life. The concepts of gender discrimination and chauvinism are examined from a scientific perspective, and their negative impacts on social development are analyzed through examples. The article also highlights the challenges of implementing gender equality policies in the 21st century, women's unemployment rates, and the consequences of social stereotypes supported by statistical data.

Keywords: gender equality, women's rights, Universal Declaration of Human Rights, UN, chauvinism, discrimination, social justice.

JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI

Dadaboyeva Jumagul Anvarovna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov

Farg'ona davlat universiteti, yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender tengligini ta'minlash masalasi jahon hamjamiyatining diqqat markazida ekanligi, bu borada xalqaro huquqiy asoslarning shakllanishi hamda amaliy mexanizmlarining takomillashuvi tahlil qilinadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, "Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risida" gi deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, ayollarning huquqiy maqomi, ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi o'rni yoritilgan. Maqolada gender kamsitish va shovinizm kabi tushunchalarning ilmiy izohi berilib, ularning jamiyat rivojiga salbiy ta'siri misollar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada XXI asrda gender tengligi siyosatini amalga oshirishda mavjud muammolar, ayollar ishsizligi ko'rsatkichlari va ijtimoiy stereotiplarning oqibatlari ham statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, ayollar huquqi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, BMT, shovinizm, kamsitish, ijtimoiy adolat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N38>

Kirish. Kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida ayollarga bo'lgan munosabat eng muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Jamiyatning ayollarga nisbatan munosabatini oqilona belgilash muammosi hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Chunki, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy hayotning ko'pchilik sohalarida davlat xizmatini tashkil etish, vatan ravnaqi, farzandlarimizning komil inson bo'lib voyaga yetishi jamiyat hayotida ayollarning tutgan o'rni va roli bilan chambarchas bog'liq. Aytish mumkinki, ayollarga munosabat jamiyatning madaniyat va ma'naviyati darajasini belgilovchi mezon hisoblanadi [1]. Har bir davlatning demokratik, dunyoviy va insonparvarlik xususiyati – uning ayollarga nisbatan bo'lgan munosabati, xotin-qizlarning huquq va erkinliklari shu jamiyatda qay darajada himoya qilinayotganligi bilan belgilanadi. Afsuski, ayollar huquqi kishilik jamiyati taraqqiyotining ko'p asrlik rivojlanish bosqichlarida har doim ham lozim darajada ta'minlanmasdan kelingan.

Amerikalik huquqshunos olim va akademik Fred Richard Shapironing so'zlariga ko'ra, “shovinizm” atamasi katta ehtimol bilan 1965-yil 18-noyabrda Pauline M. Leet tomonidan Franklin va Marshall kollejida “Talabalar-fakultet forumi” paytida kiritilgan. Xususan, jinsiy kamsitish so'zi Leetning “Ayollar va Bakalavrlar” forumidagi nutqida uchraydi va u bunga irqchilik bilan solishtirish orqali aniqlik kiritadi. Qisman (sahifada) “Munozara qilganingizda ... kam ayollar yaxshi she'r yozganligi sababli, bu ularning butunlay chetlanishini oqlaydi, siz irqchi pozitsiyasiga o'xshash pozitsiyani egallaysiz — men sizni bu holatda “shovinizm” deb atashim mumkin. Irqchi ham, shovinizm ham xuddi sodir bo'lgan hamma narsa hech qachon sodir bo'lmagandek harakat qiladi va ikkalasi ham har ikkala holatda ahamiyatsiz bo'lgan omillarga murojaat qilib, kimningdir qadr-qimmati to'g'risida qaror qabul qiladi va xulosa chiqaradi”. Shuningdek, Shapironing so'zlariga ko'ra, birinchi marta “shovinizm” atamasi bosma nashrlarda Karolin Birdning 1968-yil 15-noyabrda “On Being Born Female” jurnalida chop etilgan “Ayol bo'lib tug'ilish to'g'risida” maqolasida paydo bo'lgan. Bu nutqida u qisman shunday dedi: “Xorijda biz ko'p jihatdan shovinistik mamlakat ekanligimiz e'tirof etiladi. Jinsiy kamchilik muhim bo'lmaganda, jinsiy kamsitish odamlarni jinsiga qarab baholaydi. Shovinizm irqchilik bilan qofiyalash uchun mo'ljallangan”. Shovinizmni bir jinsning boshqasidan ustun ekanligiga ishonishga asoslangan mafkura sifatida aytish mumkin. Bu genderga asoslangan kamsitish, noto'g'ri qarash yoki stereotiplar bo'lib, ko'pincha ayollar va qizlarga nisbatan ifodalanadi [2].

Metodologiya. Dunyo bo'yicha ayollarni erkaklar bilan teng huquqqa ega ekanligini huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan dastlabki qadamlar o'tgan asming 40-yillari o'rtalarida BMTning tashkil topishi natijasida qo'yildi. Rasmiy tarzda erkaklar va ayollarning teng huquqli ekanligini yuridik jihatdan o'rnatish BMT tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilandi. Xususan, BMT Ustavida erkaklar va ayollarning teng huquqli ekanligi alohida nazarda tutilib, ungacha bironta ham xalqaro hujjatda erkak va ayollar tengligi e'tirof etilmagan edi. Birinchi bor erkaklar va ayollar tengligi tamoyili BMT tomonidan uning asosiy hujjati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e'lon qilindi. Huquqiy jihatdan bu hujjat tavsiyaviy xarakterga ega bo'lsa-da, u nafaqat xalqaro huquq, balki milliy huquq uchun ham asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. [3]

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan normalarga asosan barcha odamlar erkin va o'z qadr-qimmati va huquqlarida teng bo'lib tug'ilishlari, jinsidan qat'i nazar, unda e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi lozimligi belgilangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining muqaddimasida insonning asosiy huquqlari, shaxsning qadr-qimmati erkak va ayolning teng huquqliligi e'tiborga olinishi lozimligi e'tirof etilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida barcha odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar [3], deb belgilangan. Ushbu xalqaro hujjatda har bir inson irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar, ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinliklarga ega bo'lishi zarurligi o'rnatilgan. Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7-moddasiga binoan barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu deklaratsiyaga zid bo'lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday gij-gijlashdan teng himoya qilinishi huquqiga egadir [4].

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasida belgilanishicha, balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalanadi. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1952-yil 20-dekabrda qabul qilingan va 1954-yil 7-iyulda kuchga kirgan "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida" gi BMT Konvensiyasida ham ayollarning barcha saylovlarda ovoz berish, milliy qonunlarda o'atilgan va yalpi saylovlarni talab qiladigan barcha muassasalarga saylanish, erkaklar bilan teng sharoitlarda hech qanday kamsitishlarsiz ijtimoiy-davlat lavozimlarini egallash huquqlari e'lon qilingan (1-3-moddalar). Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasiga ko'ra, har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san'atdan bahramand bo'lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega. [5] Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Bosh konferensiyasida 1960-yil 14-dekabrda Parijda "Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risida" gi Konvensiyasi qabul qilingan. Ushbu Konvensiya 19 ta moddadan iborat bo'lib, unda kamsitish iborasi ta'lim sohasida munosabat tengligini yo'qotish yoki buzishni maqsad yoki natija qilib qo'yadigan irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqacha e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy holati yoki tug'ilish belgisi bo'yicha har qanday tafovut, istisno, cheklash yoki ustunlikni qamrab olishni anglatishi belgilangan [6].

Natijalar. Inson huquqi tizimida ayollar huquqining xalqaro-huquqiy asoslari xususida gapirganda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1967-yil 7-noyabrdagi 2263 (XXII)-rezolyutsiyasi bilan e'lon qilingan "Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risida"gi deklaratsiyaning mazmun-mohiyati haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. Mazkur xalqaro hujjat ayollar huquqi va manfaatlarini himoya qilishni tartibga solish hamda ushbu sohada davlatlararo hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishning asosiy poydevoridir. Shu huquqiy poydevor negizida o'z taraqqiyotini demokratik, dunyoviy va insonparvarlik g'oyalari asosida tashkil etgan davlatlar ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilganlar, uning qoidalarini asosiy qonunlariga to'la singdirganlar, o'zlarining ayollar huquqini ta'minlashga qaratilgan qonunlarini qabul qilganlar va amaliyotda ushbu qonun talablarini bekami-ko'st amalga oshirib

kelmoqdalar. [7] Ushbu deklaratsiyada ayollarga nisbatan kamsitish ayolning inson sifatidagi qadr-qimmat, oila va jamiyatning farovonligi bilan mos kelmasligi, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida uning erkaklar bilan teng sharoitlarda ishtirokiga xalal berishi va ayolning o'z mamlakati hamda insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishida imkoniyatlarini to'la rivojlantirishga to'siq bo'lishi e'tirof etilgan.

"Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyaning 1-moddasida: "Mazkur Konvensiyaning maqsadi o'laroq "xotin-qizlarning kamsitilishi" tushunchasi, har qanday farq jinsiy belgilariga ko'ra istisno qilish, cheklash, tan olmaslik, yo'qqa chiqarish yoki bo'shashtirishga yo'naltirilgan, ayollar foydalanayotgan yoki amalga oshirayotgan har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va boshqa sohada oilaviy sharoitidan qati nazar erkak va ayollarga tenglik asosida inson huquqlari va asosiy erkinliklar berilishini anglatadi", deb yozilgan. [8]

Bu moddaning "xotin qizlarning kamsitilishi" qismiga e'tibor beradigan bo'lsak alohida qo'shtirnoq ichiga olingan bu esa bu atama orqali deklaratsiya asosi aynan shu birlikka qaratilganligi va ayollar huquqini himoya qilish zahirida xotin-qizlarning barcha yo'nalishlarda kamsitilishlarini oldini olish yotadi desak xato bo'lmaydi. Wikipedia ma'lumotiga ko'ra gender kamsitish ma'lum bir jins vakillariga qaratilgan noto'g'ri fikr yoki kamsitishdir. Jinsiy kamsitish har kimga ta'sir qilishi mumkin, lekin bu birinchi navbatda ayollarga va qizlarga ko'proq ta'sir o'tkazadi. Bu stereotip va gender rollari bilan bog'langan va bir jins yoki jinsning boshqasidan ustun ekanligiga ishonishni o'z ichiga oladi. Jinsiy kamsitishlar orqali rivojlangan jamiyatlarda turli xil illatlarning kelib chiqishi va ko'payib ketishiga bevosita sabab bo'lmoqda. [9] Bunga misol qilib jinsiy zo'ravonlik, zo'rash va jinsiy tajovuzlarning boshqa shakllarini keltirishimiz mumkin. Gender kamsitishning, ayniqsa, ish joyidagi tengsizlik yo'nalishi hozirgi kundagi dolzarb muammo hisoblanadi. Bu holat asosan hududdagi ijtimoiy yoki madaniy urf-odatlar va me'yorlardan kelib chiqishi zamonaviy dunyoda ham ko'p uchrab turibdi. XXI asrda ishsizlar sonini ko'payishini ham bevosita shu holatning ta'siri yuqoriligi statistika tomonidan tasdiqlanadi. O'tgan yili ishsiz ayollar soni dunyo bo'yicha 5,8 foizni tashkil etgani bunga yaqqol misol. 2023-2024-yillarda ishsiz erkaklar darajasi o'zgarmaydi, 2025-yilda ayollar o'rtasidagi ishsizlik ko'payadi va 5,9 foizni tashkil qiladi. Ishsizlikning eng yuqori darajasi arab mamlakatlarida kuzatildi. O'tgan yili bu ko'rsatkich 9,3 foizni tashkil etdi [10]. Statistikadan ko'rinib turibdiki ishsizlikning eng yuqori miqdori arab mamlakatlarida keltirilgan. Bu ham ayollar huquqini kamsitilishining yaqqol ko'rinishi sifatida qarasak bo'ladi.

Muhokama qismi. Konvensiyada belgilanishicha, ushbu hujjatni imzolagan har bir davlat har to'rt yilda bir marotaba Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish qo'mitasiga o'z mamlakatida Konvensiya qoidalari qonunlarda qanday aks etgani va amalda qanday bajarilayotgani to'g'risida hisobot taqdim etishi shart. Bu hisobotlar orqali xalqaro hamjamiyat mamlakatlarning ayollar huquqlarini himoya qilish borasida qanday ishlar olib borayotganini baholaydi. Konvensiyada ilgari surilgan eng muhim tavsiyalar quyidagilardan iborat. Birinchidan, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik tamoyilini mamlakat Konstitutsiyasiga va boshqa tegishli qonunlarga kiritish hamda bu tamoyilni hayotga tatbiq etishni ta'minlash kerak. [11] Ikkinchidan, zarurat tug'ilganda ayollarga nisbatan kamsitish holatlarini cheklash maqsadida maxsus sanksiyalar qo'llanilishi mumkin. Uchinchidan, ayollarga nisbatan kamsitish xarakteriga ega bo'lgan qonunlar, urf-odatlar va amaliyotlarni

o'zgartirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish lozim. To'rtinchidan, ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy sohalarida erkaklar bilan teng ravishda huquqlardan foydalanishini ta'minlash zarur. Konvensiyada shuningdek, uning qoidalari uni imzolagan davlatlar uchun majburiy ahamiyatga ega ekanligi eslatib o'tiladi. Ya'ni, har bir davlat bu hujjatda belgilangan majburiyatlarni bajarishga mas'uldir. Konvensiyada ayollarning erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishi masalasi alohida e'tiborda turadi. Unda ayollarga erkaklar bilan teng sharoitda saylovlarda ovoz berish va saylanish huquqi, davlat boshqaruvida va jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etish huquqi, shuningdek, ochiq referendumlarda qatnashish imkoniyati kafolatlanadi. [12]

Konvensiyaning 4-moddasiga ko'ra, davlatlar tomonidan faqat onalikni himoya qilishga qaratilgan choralargina emas, balki ayollarning erkaklar bilan amaldagi tengligini ta'minlashni tezlashtirish uchun vaqtinchalik maxsus choralar ham kamsitish deb hisoblanmaydi. Shu bilan birga, bunday maxsus choralar erkaklar va ayollar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishilgach, o'z kuchini yo'qotadi. [13]

Nikoh bilan bog'liq qonunlar, qoidalar va an'analar dunyoning ko'p joylarida ayollarga nisbatan kamsitishda davom etmoqda va ayollarga nisbatan yomon munosabatda bo'lishga, xususan jinsiy zo'ravonlik va jinsiy hayotga nisbatan o'z taqdirini o'zi belgilashga hissa qo'shishda davom etmoqda. Bu sabablar orqali ayollar huquqlarining buzilishi tan olinmoqda. 2012-yilda o'sha paytdagi Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar Navi Pillay shunday degan edi: Ayollarga ko'pincha mulk sifatida qaraladi, ular turmush, odam savdosiga, jinsiy qullikka sotiladi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik ko'pincha jinsiy zo'ravonlik shaklida bo'ladi. Bunday zo'ravonlik qurbonlari ko'pincha fohishalikda ayblanadi va o'z taqdiri uchun javobgar bo'ladi. Bepusht ayollar esa erlar, oilalar va jamoalar tomonidan rad etiladi. Ayollarning o'z tanalarida to'liq avtonomiyaga ega bo'lishini ta'minlash ayollar va erkaklar o'rtasidagi tub tenglikka erishish yo'lidagi birinchi muhim qadamdir. Qachon, qanday va kim bilan jinsiy sherikni tanlashi, qachon, qanday va kim bilan farzand ko'rishni tanlashi kabi shaxsiy muammolar — munosib hayot kechirishning omili hisoblanadi [14].

Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish to'g'risidagi Konvensiya ayollar huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. Ushbu Konvensiyada ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarni qonun yo'li bilan taqiqlash, ayollar va erkaklar o'rtasida teng huquqlilikni ta'minlash, amalda esa bu tenglikka tezroq erishish uchun qo'shimcha choralar ko'rish zarurligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, ayollarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda teng ishtirok etish huquqini kafolatlash hamda kamsitishlarga sabab bo'layotgan ijtimoiy va madaniy qarashlarni o'zgartirish zarurligi ham Konvensiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. [15]

Xulosa. Umuman olganda, Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish to'g'risidagi Konvensiya ayollar huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilish, ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, teng imkoniyatlarni ta'minlash hamda jamiyatda gender tengligini qaror toptirishga xizmat qiladi. Mazkur hujjat har bir davlat uchun nafaqat rasmiy majburiyat, balki adolat va tenglik sari yo'l ko'rsatuvchi muhim xalqaro mezon sifatida ahamiyat kasb etadi.

Ayollar huquqini kamsitilishi siyosiy hayotda va ijtimoiy turmush faoliyatida ro'y berishi mumkin. Har qanday shaklda amalga oshirilayotgan kamsitish ayolni erkaklar ega bo'lgan imkoniyatlardan mahrum qilib, muqarrar ravishda uning amaldagi tengsizligiga olib keladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligini inkor qilishga yoki cheklashga olib keluvchi, ularga nisbatan kamsitish o'z asosiga ko'ra adolatsizlik hisoblanadi va inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyat hisoblanadi, deb belgilangan. Ayollarga nisbatan kamsituvchi hisoblangan mavjud qonunlar, odatlar, qarorlar va amaliyotini bekor qilish, erkaklar va ayollar teng huquqliligining tegishli huquqiy himoyasini o'rnatish uchun barcha zarur choralar ko'rilishi, ya'ni erkaklar va ayollarning tengligi tamoyili davlatlar Konstitutsiyalariga kiritilishi lozim. BMT va ixtisoslashgan muassasalarning ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etishga oid xalqaro hujjatlari ratifikatsiya qilinishi yoki ularga qo'shilish yohud imkon qadar qisqa muddatlarda to'laligicha hayotga tatbiq etilishi kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Inson huquqi. O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti. Darslik. -Toshkent. 2021. 111-bet.
2. Leet, "Feminism Friday: The origins of the word "shovinizm"" 1965
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. -T.: "Adolat". 1992.
4. Kun.uz ma'lumotnomasi <https://kun.uz/news/2023/02/04/dunyoda-ishsizlar-soni-205-milliondan-oshdi>
5. Helen Kanzira, "Valuing Women as Autonomous Beings: Women's Sexual and Reproductive Health Rights". Pretoria-15 May 2012
6. J.Dadaboyeva, M.Habibullayev. Inson huquqlarining rivojlanish tarixi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2025-6-son, 348-bet.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_kamsitish
8. https://www.youtube.com/watch?v=Sx-G_bkbQhE
9. Jaramillo A. M., Macedo M., Oliveira M., Karimi F., Menezes R. Systematic comparison of gender inequality in scientific rankings across disciplines.
10. UNESCO. Advancing gender equality in STEM education: Inspiring girls to pursue science.
11. OECD. Women in Scientific Careers: Unleashing the Potential.
12. 500 Women Scientists, Non-profit advocating for gender equality in science.
13. WISE Campaign Women into Science and Engineering – Buyuk Britaniyada STEM sohalariga ayollar va qizlar ishtirokini oshirish bo'yicha tashkilot faoliyati.
14. Elboyeva Shakhnoza. The Activities and Publishing Achievements of
15. Uzbek Female Scientists in International Prestigious Scientific Journals.
16. Xasanova Nargiza Maxsatjonovna. THE RELEVANCE, ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES OF WOMEN'S PARTICIPATION IN STEM IN UZBEKISTAN. O'zbekiston STEM sohasida ayollarning ishtiroki va mavjud qiyinchiliklar bo'yicha ilmiy maqola.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).